

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta‘lim fakulteti

Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi

2-bosqich 201-guruuh talabasi

Choriyeva Durdona

ANNOTATSIYA. Maqolamning mazmuni shundan iboratki, unda kreativlik haqida so‘z boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativligini qay tarzda oshirish haqida va aynan maktabgacha yosh davrida bolalarda ijodiy faol davr ekanligi haqidadir. Maktaabgacha yoshdagi bolalarning kreativligini oshirishda qanday mashg‘ulotlar otkazish zarurligi, “kreativlik yo‘l xaritasi” ga ko‘ra qanday yo‘nalishlar borligi va u bo‘yicha qanday harakatlanish mumkinligi haqida hamda buyuk olimlarning kreativlik haqidagi fikrlari ilgari suriladi.

KALIT SO‘ZLAR. Kreativlik, yaratish, yangilik, tafakkur, tasavvur, noan'anaviylik, qiziquvchanlik, erkinlik, progressive, kommunikativ, innovatsion yondashuv, ijodiy fikrlash, strategiya, inklyuziya, rekonstruksiya.

, Kreativlik so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, "yaratish" degan ma’noni anglatadi. Kreativlik bu o‘z qiymatiga ega original g’oyalar majmuidir.

Kreativlik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangiliklarni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning muammosi ko‘pgina pedagog va tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o‘rganilib kelinmoqda. Emebaylning fikricha kreativlik muayyan soha bo‘yicha o’zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish demakdir. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negiizda noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil - mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb

tushunadilar. Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borsidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Boshqa ko'pgina, sifatlar (fazilat) singari kreativlik ham bordaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirib boradi. Bolaning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davri, chunki aynan manashu davrda psixik jarayonlar progressive o'zgarishlar kechadi va shaxsiy fazilatlar tezkor rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o'yinlar yordamida amalga oshadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida estetik tafakkurni shakllantirishning ko'pgina usullari mavjud. Bunda mashg'ulot jarayonida turli o'yinlardan foydalilaniladi. Mashg'ulotni samarali o'tkazish o'z navbatida tarbiyachi pedagogga bog'liqdir. Mashg'ulotlarda "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardag'i harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilarni sanaladi:

1. Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
2. Mashg'ulotlarni qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
3. Innovatsion yondashuv va pedagog masalalarining yechimini topishga kreativ yondashish;
4. Kutiladigan natija.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, shuningdek, bolalar faoliyatining o'yin, dramatizatsiya kabi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Shunday qilib, kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi aniq vazifalarni hal qilish kerak:

1. Bolalarning estetik va hissiy tajribasini boyitish, ularning atrofdagi voqelik haqidagi g'oyalai hajmini oshirish, ufqlarini kengaytirish.
2. Bolalar nutqini, majoziy iboralarni rivojlantirish, so'z boyligini boyitish.

3. Bolalarda qayta loyihalash, tajriba elementlarini birlashtirish qobiliyatini rivojlantirish.

Bolalarda "inklyuziya" asosid rekonstruksiya qilish kabi operatsiyani shakllantriishga alohida e'tibor beriladi, bu turli xil tasvirlarni yaratish uchun bir xil elementdan foydalanishga imkon beradi.

4. Rivojlanayotgan muhitni ma'lum bir tarzda jihozlash. Tasavvurning kombinatsion mexnizmlarini shakllantirish uchun sharoit yaratish lozimdir.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda kreativ yondashuv assosida estetik tafakkurni shakllantirishning ko'pgina usullari mavjud. Bunda mashg'ulot jarayonida turli o'yinlardan foydalilaniladi. Mashg'ulotni samarali o'tkazish o'z navbatida tarbiyachi pedagogga bog'liqdir. Mashg'ulotlarda "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilari sanaladi:

1. Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
2. Mashg'ulotlarni qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
3. Innovatsion yondashuv va pedagog masalalarining yechimini topishga kreativ yondashish;
4. Kutiladigan natija.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, shuningdek, bolalar faoliyatining o'yin, dramatizatsiya kabi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Shunday qilib, kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi aniq vazifalarni hal qilish kerak:

1. Bolalarning estetik va hissiy tajribasini boyitish, ularning atrofdagi voqelik haqidagi g'oyalai hajmini oshirish, ufqlarini kengaytirish.
2. Bolalar nutqini, majoziy iboralarni rivojlantirish, so'z boyligini boyitish.
3. Bolalarda qayta loyihalash, tajriba elementlarini birlashtirish qobiliyatini rivojlantirish.

Bolalarda "inklyuziya" asosid rekonstruksiya qilish kabi operatsiyani shakllantriishga alohida e'tibor beriladi, bu turli xil tasvirlarni yaratish uchun bir xil elementdan foydalanishga imkon beradi.

4. Rivojlanayotgan muhitni ma'lum bir tarzda jihozlash. Tasavvurning kombinatsion mexnizmlarini shakllantirish uchun sharoit yaratish lozimdir.

I.P.Nikitinaning fikricha, san'at falsafasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri “kreativlik” tushunchasi qo‘llanilmaydi, biroq “inson muntazam ravishda o‘zining shaxsiy “chegarasi”dan chetga chiqishga harakat qiladi: o‘zining imkoniyatlari, hayoti va o‘z dunyosidan”. Transtsenditlikda insonning o‘z-o‘zini o‘zgartirishga intilishi, hissiyotlari, ijodkorligi va kreativligi asos bo‘lib xizmat qiladi. Psixologik nuqtai nazardan kreativlik ko‘proq ijodga umumiyligini qobiliyatatlilik bilan aloqadorlikda talqin qilinadi. Hozirda mazkur atama original yechimlarni izlab topish, nostandard harakatlarni amalga oshirishga tayyorlik ma’nosini ifoda etadi. Psixologiyada kreativlik deganda “yangi g‘oya, yechim, metodlar, nazariyalar yoki qandaydir faoliyatning yangi mahsulini ishlab chiqish” tushuniladi. XX asrning 50-yillarida paydo bo‘lgan insonparvarlik psixologiyasining maqsadi sifatida aynan o‘z-o‘zini aktuallashtirish jarayonida o‘zining imkoniyatlarini namoyon etishga qodir ijodkor shaxsni o‘rganish belgilangan edi. Insonparvarlik psixologiyasi uchun xos inson tabiatiga ishonch bildirish uning kreativligi tabiatini va rolini tushunishga ham taalluqlidir. Mazkur yo‘nalishning asosi tarafdorlari – Sharlotta Byuler, Abraxam Maslou, Rollo Mey, Karl Rodjerslardir. Karl Rodjers kreativlik tushunchasi mohiyatini izohlashda “muammoning avval aniqlanmagan yechimlarini izlash”ga alohida urg‘u bergen. Simpson kerativlini “insonni fikrlashning qotib qolgan usullaridan voz kechishi” sifatida talqin qiladi. San'at psixologiyasi bilan bog‘liqlikda Irji Kulkaning quyidagi nuqtai nazari qiziqish uyg‘otadi: “kreativlik psixologik jihatdan sog‘lom va maqbul tarzda o‘z-o‘zini namoyon etuvchi shaxs sifatidir”. Xorij olimlaridan P.Torrens fikricha, kreativlik - muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligidagi nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi. Bizning tadqiqotimiz doirasida kreativlikka berilgan barcha ta’riflarni ko‘rib chiqish imkoniyati yo‘q, shuning uchun ular orasidan alohida ahamiyat kasb etadigan nuqtai nazarlargacha to‘xtalib o‘tamiz. Ular orasidan ayniqsa, I.P.Ilin tomonidan bildirilgan

quyidagi fikrni alohida ta'kidlab o'tish lozim: "XX asrning 60-yillarida kreativlik tushunchasiga 60 ta ta'rif berilgan bo'lib, ularni shartli ravishda 6 ta turga ajratish mumkin":

- 1) mavjud elementlardan yangi geshtalbtar hosil qilish mumkinligiga doir geshtalbtist (naprimer: M. Vertgeymer, Keller);
- 2) yaratilgan mahsulotning yangilagini baholashga doir innovatsion (S. Mednik);
- 3) insonning o'zini ifoda etishi sifatida shakllanadigan estetik (naprimer: A. Maslou, E. Fromm);
- 4) munosabatlar psixologiyasi orqali kreativlik namoyon bo'ladigan psichoanalitik (Z. Fretsd., K. Yung);
- 5) muammoli – kreativlik vazifalarni hal etish jarayoni (masalan, Gilford kreativlikni divergent fikrlash sifatida e'tirof etgan);
- 6) noaniqlik yoki noyoblik".

M.A.Xolodnayav tadqiqotlarida kreativlik "erkin faoliyat sharoitida insonning produktiv fikrlashi va ko'plab miqdordagi qiziqarli g'oyalarni ilgari surishga tayyorligi, ya'ni divergent fikrlashi" sifatida talqin qilingan.

V.N.Kozlenko o'zining tadqiqotlarida kreativlikni "har bir insonga tug'ilganidan in'om etilgan va refleksiya shaklida ("buning uchun nima qilish kerak?") namoyon bo'ladigan ehtiyoj" sifatida talqin qilgan.

V.G.Kamenskaya va I.E.Melnikova kreativlikni yangi materiallar va ideal mahsulotlar yaratishga qodir ijodiy iqtidorli insonning shaxsiy o'ziga xosligi sifatida izohlashgan.

D.B.Bogoyavlenskaya kreativlikni "aqliy faoliyatning intensivligiga sinonim sifatida intellektual faollik" deb fikr bildirgan.

O.V.Butorina mazkur atamaning ko'plab izohlarini tahlil qilish natijasida uning quyidagi o'ziga xosligini aniqlashtirgan: turli ta'riflarda kreativlikning farq qiluvchi jihatni divergent fikrlash yoki yaxlitlikda intellektual ijodkorlik, mahsuliga ko'ra butunlay yangi yoki original qayta tizimlashtirilgan, ma'lum tizimlarni qayta tashkil etish, insonning yaratuvchilik faoliyatiga layoqatliligi yoki axborotlarni nostandard kodlash va va h.k.

Kreativlikning mohiyatini aniqlash va bayon etishga doir ilmiy izlanishlar jarayonida ijodkorlik nazariyasi yoki ijodkor shaxsni rivojlantirish nafaqat xorijlik, balki respublikamiz olimlarida ham qiziqish uyg'otganligiga guvoh bo'ldik. Jumladan, Z.Nishanova o'quvchilarda mustaqil-ijodiy fikrlashni shakllantirish nuqtai nazaridan kreativlikni divergent va konvergent tafakkur bilan bog'liqlikda talqin etgan.

1. R.G'.Qodirov "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya"(2005)
2. "Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi".(2010)
3. Berkinblit M.B., Petrovskiy A.V. "Fantaziya va haqiqat"
4. Venger L.A., Dyachenko O.M. "Maktabgacha yoshdag'i bolalarda aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlar va mashqlar"
5. Tunik E.E. "Ijodiy fikrlash diagnostikasi" (2006)

